

**OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARDA
IJTIMOIYLASHUV MUAMMOLARINI BARTARAF ETISHNING MEXANIZMLARI**

Ayosova Zarina Qurbanovna

Buxoro Innovatsiyalar Universiteti Magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10620936>

Annotatsiya. Ushbu maqolada noto 'liq oilalarda ulg 'ayayotgan bolalardagi muammolar va ularning shakllari, ularda uchraydigan ijtimoiylashuv jarayonidagi muammolar, muammolarning yechimi va yechim topishda pedagogning mexanizmlari va mexanikalari haqida bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so`zlar: Noto 'liq oilalar, chin yetim, tirik yetim, vasiylik, hamkorlik.

**PEDAGOGICAL MECHANISMS OF ELIMINATING THE PROBLEMS OF
SOCIALIZATION IN CHILDREN DEPRIVED OF PARENTAL CARE**

Abstract. In this article, some information is given about the problems of children growing up in dysfunctional families and their forms, problems in the process of socialization, solutions to problems and the mechanisms and mechanics of the pedagogue in finding solutions.

Key words: Incomplete families, true orphan, living orphan, guardianship, cooperation.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ УСТРАНЕНИЯ ПРОБЛЕМ
СОЦИАЛИЗАЦИИ У ДЕТЕЙ, ЛИШЕННЫХ РОДИТЕЛЬСКОЙ ПОМОЩИ**

Аннотация. В данной статье даны некоторые сведения о проблемах детей, растущих в неблагополучных семьях, и их формах, проблемах в процессе социализации, способах решения проблем и механизмах и механике работы педагога в поиске решений.

Ключевые слова: Неполные семьи, истинная сирота, живущий сирота, опека, сотрудничество.

KIRISH

Har qanday davlatda, har qanday jamiyatda ham ota-onsa qaramog'isiz qolgan bolalar bo'lgan, xozir ham mavjud va keyin ham bo'ladi. Bunday xollarda davlat bu bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishi mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

Afsuski, barcha oila ham ota-onsa va ular dunyoga keltirgan farzandlar bilan to`liq bo`lavermaydi. Taqdir taqozosi bilan ayrim oilalarda nizolar kelib chiqadi va uning oqibati sifatida nikoh barbob bo`ladi. Olimlar nikohning barbob bo`lishini o`rganib, uning sabablari turlicha bo`lishi mumkinligi to`g'risida o'z nazariy qarashlarini bayon etganlar. Masalan, ayrim psixologlar ajrimlarni "turtki" kontseptsiyasi orqali tushuntirishga urinadilar.

Ya'ni, yaxshi tinch-totuv yashayotgan oilada birdan shunday holat yuz beradiki, masalan, xiyonat, o`lim, xastalik, rashk va shunga o`xshash voqealar turki bo`ladi-yu, oila ustuni qulaydi. Aslida hayotda qo`qqisdan shunday bir silkinish yoki turtki bilan oila birdan buzilib ketishi kam uchraydi. Ana shunday vaziyatlarda oilalardagi farzandlar yetim bo`lib qoladilar. Bolalar bunday vaziyatda yo onasini yoki otasini tanlashga majbur bo`lishadi. Bu esa bola uchun juda ham og'ir, chunki bola hech qachon yo otasi bilan yoki onasi bilan yashashni xoxlamaydi. Ularning har ikkalasi bilan bola to`kisdir.

Ko`pincha ota-onalar ajrimi kuzatilgan bolalar psixologiyasida turli-tuman psixologik muammolar va o'zgarishlar kuzatiladi. Ularning o'qishida jamiyatda o'zini tutishida, odamlar

orasiga qo'shilishida ko'plab qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bumday bolalarda tormozlanish, ajralib qolish, e'tiborsizlik, qo'rkoqlik va xarakter xususiyatiga ko'ra atrofdagilarning munosabatiga ko'rsatadigan reaksiyasi ham o'zgarib boradi.

Xo'sh bunday holatlar faqatgina ajrimni boshdan kechirgan bolalarda kuzatiladimi yo'q albatta. Shunday oilalar mavjudki to'liq bo'lishoga qaramay bolada turli ruhiy zo'riqishlar, psixologik travmalar kuzatiladi. Bu oiladagi muhitga ham bog'liqdir.

Manbalarda oiladagi mavjud muhitning, oila a'zolarining bir-birlari bilan o'zaro munosabatiga ko'ra quyidagi turlari ko'rsatilgan:

- 1) Tinch, baxtli oilalar (ularda vazifalar muvaffaqiyatli bajariladi, oila a'zolari o'rtasida o'zaro ziddiyatlar yuzaga kelmaydi; har bir ishni bajarishdan oldin maslahatlashiladi, agarda muammolar yuzaga kelsa, birgalikda, hamjihatlikda hal qilinadi);
- 2) Ijtimoiy xavf mavjud bo'lgan oilalar (farzandlarni tarbiyalashda muammolar ko'zga tashlanadi);
- 3) Notinch oilalar (doimiy janjallar hukmron bo'lib, farzand tarbiyasida katta qiyinchiliklar seziladi);
- 4) Asotsial oilalar (ota-onalar axloqsiz hayot kechirishadi; oilada sanitariya-gigiena qoidalariga amal qilinmaydi, bolalar nazoratsiz qoldiriladi).

Mamlakatimizda ota-onasidan mahrum bo'lgan bolalar, chin yetimlar va yo otasidan yo onasidan mahrum bo'lgan bolalarni jamiyatda o'z o'rnini topishida, ijtimoylashuvida yordam ko'rsatish, aqsadida ko'plab qarorlar qabul qilinmoqda. Bundan tashqari ko'plab islohotlar va tadbirlar ham amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi «Yetim bolalar va ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida»gi qonun loyihasini regulation.gov.uz saytiga muhokamaga qo'ydi. Bu haqda vazirlik matbuot xizmati xabar berdi.

Qonun loyihasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi bilan hamkorlikda ishlab chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi dolzarbligi, yetim bolalar va ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishning qo'shimcha mexanizmlarini ishlab chiqish zaruriyati bo'lganligi bilan ahamiyatli.

Har yili 400 nafardan ko'proq Mehribonlik uylari bitiruvchilarining 60 nafari oliv o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirmoqda. Yetim va ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash hamda huquqini tiklash masalalari to'liq hal qilinmagan.

Ushbu toifadagi bolalarni ijtimoiy himoya qilish turli xil normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan. Lekin ularning ta'lim olish, ish bilan ta'minlash, tibbiy xizmat ko'rsatish, uy-joy va boshqa ijtimoiy xizmatlardan foydalanish kabi turli xil hayotiy vaziyatlardagi ijtimoiy himoyasini to'liq ta'minlash imkonini bermaydi.

Qonun loyihasi 3 ta bob va 24 ta moddadan iborat. Qonun loyihasining birinchi bobida— umumiy qoidalar, qonunda qo'llanilgan asosiy tushunchalar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari, yetim, shuningdek, ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, yomon muomala, beparvolik, ekspluatatsiya hamda zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish o'rin olgan.

Ikkinch bob— yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquqlarining asosiy kafolati, ta’lim olishi, ularga tibbiy yordam ko‘rsatish, ijtimoiy xizmatlarni olish, ro‘yxatdan o‘tish joyi va fuqaroligidan qat’iy nazar, yashash joylari, mulk, mehnat, davlat organlariga murojaat qilish, huquqiy yordam, sud himoyasi, fuqarolik, uy-joy, mulk, mehnat, huquqini o‘z ichiga oladi.

Uchinchi bob— yakuniy qoidalar, yetim bolalar va ota-onas qaramog‘isiz qolgan bolalarni moliyaviy ta’minalash bo‘yicha chora-tadbirlar tartibini va ushbu qonun loyihasida belgilangan nizom qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilaydi.

Qonun loyihasining qabul qilinishi yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishning barcha jihatlari va ularning huquqiy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda bunday qarorlar va qonunlarning tasdiqlanishi jamiyatimizda psixologik zo‘riqishlarsiz, yot unsurlarsiz, deviat xulqli bolalar sonining kamayishiga va jamiyatda noto‘liq oilalar keltirib chiqargan kamchiliklarni bir muncha bartaraf etadi.

XULOSA

Hozirgi kunda O‘zbekistonda oilaviy ajrim dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ajrashishlarning sabablari o‘rganilib, yoshi katta onaxonlar, mahalla faollari muammolarni hal etish yo‘llarini izlashlari lozim. Chunki Islom dinida har bir buzilgan nikoh uchun arshi a’lo larzaga kelishi alohida ta’kidlab o‘tilgan. Oiladagi bolalarning tirik yetim bo‘lib qolishi, jamiyatda tirik yetimlar sonining oshishi taraqqiyotga salbiy ta’sir o‘tkazmasdan qolmaydi. Yana alohida ta’kidlash lozimki, farzandini har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda ota-onas zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida “Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar”, deb ta’kidlangan.

Arzimagan vajlar tufayli oilani barbod qilish, albatta, bolalar tarbiyasiga salbiy ta’sir etadi. “Bolaning uvoli tutadi” degan gaplar ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘limgan, albatta. Afsuski, uvol-savobni bilmaydigan, norasidalarning yetim qolishini o‘ylamaydigan ota-onalar ham oramizda yo‘q emas.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har birimiz o‘z ishimizga mas’ul bo‘lib, oilaviy ajrim yoqasidagi oilalarni barvaqt aniqlasak va ularga, ularning farzandlariga manzilli yordamni o‘z vaqtida ko‘rsata olsak, ko‘p oilaviy ajrimlarning oldini olgan bo‘lamiz. Sog‘lom va mustahkam oila – sog‘lom kelajak poydevori. Oilada sog‘lom ma’naviy muhit, oila a’zolarida o‘zaro hurmat-ehtirom ruhini yaratish, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarimizni saqlab qolish, kelajak avlodlarimiz ongiga sog‘lom turmush tarzini singdirish asosiy vazifamiz ekanligini yoddan chiqarmasligimiz lozim.

REFERENCES

1. Axloq-odobga oid hadis namunalari. – Toshkent: Fan, 1990.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
3. Madieva R. Oilalarni saqlab qolishga har birimiz mas’ulmiz. Internet ma’lumoti //https://yuz.uz/news/ijtimoiy hayot (17.01. 2022).

4. Statistika agentligi xabarlari. Internet ma'lumotlari // <https://stat.uz/> 20.05.2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaati. Internet ma'lumoti: <https://www.xabar.uz/>.
6. <https://ijtimoiy.uz/2541/>
7. <https://lex.uz/ru/docs/-5695154?ONDATE=14.08.2023>